

The Model of Developing Students' Sociolinguistic Competence in English through Independent Learning

Dilafruz SARIMSAKOVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

sociolinguistic competence,
independent learning,
sociocultural approach,
linguo-technology,
Think-Pair-Share,
Information Gap,
Readers' Club,
learner autonomy,
communicative competence.

ABSTRACT

This study develops a methodological model aimed at enhancing students' sociolinguistic competence in English within the framework of independent learning, and systematically analyzes the mechanisms for its practical implementation. The model is grounded in a sociocultural approach and is designed to integrate classroom activities beyond independent learning. Independent learning tasks are structured across three stages such as "highly controlled," "moderately controlled," and "free practice" and employ methods such as brainstorming, clustering, case study, role-plays, web-quests, project work, and online courses. Furthermore, linguo-technologies such as Think-Pair-Share, Information Gap, and Readers' Club are highlighted as effective tools for fostering students' ability to communicate freely in diverse contexts, internalize cultural norms and social values, and use language resources appropriately across different situations. Experimental results confirm that the proposed model significantly improves students' language autonomy, reflective assessment skills, and professional preparedness.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp271-283>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modeli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sotsiolingvistik
kompetensiya,
mustaqil ta'lim,

Tadqiqotda mustaqil ta'lim jarayonida ingliz tilida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqilib, uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Model sotsiomadaniy

¹ PhD, Associate Professor, Department English Language, Namangan State University.

sotsiomadaniy yondashuv,
lingvotexnologiya,
Think–Pair–Share,
Information gap,
Readers' club, talaba
avtonomiyasi,
kommunikativ
kompetensiya.

yondashuvga asoslanib, talabalarining auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim faoliyatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda "highly controlled", "moderately controlled" va "free practice" bosqichlari asosida mustaqil ta'lim topshiriqlari tizimlashtirilib, aqliy hujum, klaster, keys stadi, rolli o'yinlar, veb-kvestlar, loyiha ishlari va onlayn kurslar kabi metodik usullari qo'llanilgan. Shuningdek, Think–Pair–Share, Information gap, Readers' club kabi lingvotexnologiyalar orqali talabalar kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qilish, madaniy normalar va ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish, turli kontekstlarda til vositalaridan samarali foydalanish ta'kidlangan. Tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan model talabalarining til avtonomiyasini, reflektiv baholash ko'nikmalarini va kasbiy tayyorgarligini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlandi.

Модель развития социолингвистической компетенции студентов по английскому языку в процессе самостоятельного обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

социолингвистическая компетенция, самостоятельное обучение, социокультурный подход, лингвотехнологии, Think–Pair–Share, Information Gap, Readers' Club, автономия учащихся, коммуникативная компетенция.

В исследовании разработана методическая модель, направленная на развитие социолингвистической компетенции студентов по английскому языку в рамках самостоятельного обучения, и системно проанализированы механизмы её практической реализации. Модель основана на социокультурном подходе и предполагает интеграцию аудиторных занятий с самостоятельной учебной деятельностью. Задания для самостоятельного обучения структурированы в три этапа: «жёстко контролируемый», «частично контролируемый» и «свободная практика», при этом используются такие методы, как мозговой штурм, кластеризация, кейс-стади, ролевые игры, веб-квесты, проектная работа и онлайн-курсы. Кроме того, особое внимание уделяется применению лингвотехнологий (Think–Pair–Share, Information Gap, Readers' Club), которые способствуют формированию у студентов навыков свободного общения в различных контекстах, усвоению культурных норм и социальных ценностей, а также адекватному использованию языковых средств в разных ситуациях. Экспериментальные результаты подтверждают, что предложенная модель существенно повышает уровень языковой автономии студентов, их рефлексивных оценочных умений и профессиональной подготовки.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida ingliz tilini nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy jihatlar bilan o'zlashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois mustaqil ta'lim jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish samarali metodik yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditoriyada talabalarni juftlikda yoki guruhlarda o'zaro hamkorlikda ishlashi hamda mustaqil topshiriqlarni bajarishi ularning sotsiolingvistik kompetensiyasini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon, ayniqsa, talabalar muammoli vaziyatlarni bir-birlariga sharhlab, birgalikda yechim qidirish chog'ida yaqqol kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, mustaqil ta'lim olish jarayonini bevosita auditoriyada kichik guruhlarda, juftlikda va hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari yordamida tashkil etish zaruriyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, har bir amaliy mashg'ulotning mazkur texnologiyalarni qamrab olishi talabalarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modelini sotsiomadaniy yondashuv asosida ishlab chiqdik. Ushbu model talabalarning (bo'lajak ingliz tili mutaxassislar) sotsiolingvistik kompetensiyasini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim uchun tanlanadigan til materiallari aniq maqsad va vazifalar asosida auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga va shuningdek, talabalarni faol hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Biroq pandemiya sharoitida auditoriya va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'limdan tashqari aralash (blended) ta'lim muhitida asinxron (aniq vaqt talab etmaydigan masofaviy mustaqil ta'lim – MOOC, Future Learn, Canvas, Coursera, Khan Academy kabi mashhur masofaviy ochiq va bepul kurslar, o'quv platformalari), sinxron (aniq vaqtda tashkil etiladigan masofaviy ta'lim – Zoom, Google meeting kabi platformalar yordamida tashkil qilinadi) shakldagi mustaqil ta'limdan dunyo miqyosida keng foydalanildi.

Tadqiqotda talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) bo'yicha ingliz tilini C1 darajada egallashlari uchun o'qituvchi va talaba hamkorligida bajariladigan mustaqil ta'limni uch turga ajratdik (1-rasmga qarang) va tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalandik.

1-rasm.

O'qituvchi va talaba hamkorligida bajariladigan mustaqil ta'lim shakllari



“Til ko‘nikmalari integratsiyasi”, “Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish” va “Mamlakatshunoslik” amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash maqsadida ishlab chiqilgan “Mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi” nomli tajriba-sinov dasturiga ko‘ra, auditoriyadagi mustaqil ta‘lim uch bosqichda tashkil etiladi: 1) Highly controlled practice stage (topshiriqlar o‘qituvchi nazoratida bajariladi); 2) Moderately controlled practice stage (topshiriqlar qisman mustaqil bajariladi, o‘qituvchi zarur bo‘lgandagina vazifalarni bajarishga yordam beradi); 3) Free practice stage (topshiriqlar to‘liq mustaqil bajariladi); (2-rasmga qarang). Har bir bosqichda belgilangan mustaqil ta‘lim topshiriqlarning murakkabligi ortib boradi.

2– rasm.

Auditoriyadagi mustaqil ta‘lim bosqichlari



Topshiriqlar o‘qituvchi nazoratida bajariladi



Topshiriqlar qisman mustaqil bajariladi,
o‘qituvchi zarur bo‘lgandagina vazifalarni bajarishga



Topshiriqlar to‘liq mustaqil bajariladi

Auditoriyadagi mustaqil ta‘lim jarayonida aqliy hujum, klaster, blis-so‘rov, kichik guruhlarda ishlash, insert, prezentatsiya, keys stadi kabi usullardan keng foydalaniladi. Biz talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy topshiriqlar, muhokama, keys stadi, rolli o‘yinlar, kuzatuvlar, ma‘lumotlar yig‘ish bo‘yicha topshiriqlar, grafik organayzerlar, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash (pair work, small group work), Think, Pair, Share kabi lingvotexnologiyalarning talabalarni mustaqil o‘rganishga da‘vat etuvchi topshiriqlarga alohida e‘tibor qaratdik.

Talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda qaratilgan auditoriyadan tashqarida mustaqil ta‘lim uchun loyiha ishlari, veb kvestlardan yordamida talabalarni mustaqil bilim olishlariga ongli ravishda yo‘naltirildi va turli tadbir, tanlovlar va treninglar (dunyo miqyosida “extracurricular activities” termini bilan ishlatiladi) tashkil qilindi.

Onlayn (asinxron) mustaqil ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar hamkorligida masofadan boshqariladigan Google classroom elektron o‘quv platformacida mustaqil ta‘lim tashkil qilindi va www.futurelearn.com masofaviy ochiq platformasining (“Explore how to improve your communication with people from other cultures”) bepul kurslari tavsiya etildi.

Mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga imkon beruvchi metodik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan o‘quv materiallari quyidagi tartibda amaliyotga tatbiq etdik (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bilimlar tasnifi

Madaniyatga oid umumiy bilimlar (cultural shared knowledge)	Madaniyatga oid umumiy qarashlar (cultural shared views)	Madaniyatga oid umumiy normalar (cultural shared patterns)
Tarix (masalan, har bir shaxsning yashayotgan mamlakati tarixini bilishi) Kundalik maishiy yumushlar: avtomobil haydash, xarid qilish, xarid haqida maslahat berish, qaytim berish va h.k.z. masalan, bozorda arzonroq narxda berishni so'rash, tug'ilgan kunga qanday sovg'a olishni bilish, ko'chani kesib o'tish kabilar.	Salomatlik (sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish, shamollab qolganda ko'riladigan choralar) To'g'ri va noto'g'ri (turli yoshdagi odamlarga bir xilda muomala qilinadi yoki yo'q, kim bilan do'stona muomala qilish mumkin, kinga faqat hurmat bilan muomala qilish kerak, biror narsa so'rash)	Xushmuomalalik (masalan, kechirim so'rash, o'zr so'rash, maqtov aytish, hamdardlik bildirish) Rasmiy va norasmiy muomala (yoshiga, jinsiga qarab murojaat qilish) Vaqt (turli madaniyatlarda vaqt tushunchasi)

Mustaqil ta'lim jarayonida ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik yondashuvlariga muvofiq quyidagi strategiyalarni ishlab chiqdik:

- o'qituvchining mashg'ulot davomida gapiradigan vaqtini (teacher's talk) imkon qadar qisqartirish;
- talabalarning mashg'ulot davomida interaksiya vaqtini imkon qadar ko'paytirish;
- baholashning kreativ turlarini va refleksiyaning qo'llash. Masalan, talabalar bir-birlarining og'zaki bajargan topshiriqlariga kalit so'zlar yordamida fikr bildiradilar. "Can I...?" bilan boshlanadigan savollar orqali talabalar o'rgangan va o'rganilmagan bilimlarini aniqlay oladilar (1-ilogaga qarang).
- talabalarning hayoti va tajribalari bilan bog'liq lavhalar orqali til o'rganishni mazmunli tashkil qilish;
- talabalarga uy vazifalarini qay tarzda bajarishni tanlashga ba'zan imkon berish;
- talabalarning til tajribasini hisobga olgan holda yangi leksika va strukturalarni o'rgatish. Ingliz tilini mustaqil o'zlashtirish tamoyili (comprehensible input)ga muvofiq o'zlashtirish uchun berilayotgan yangi til materialining qiyinchilik darajasi talabalarning til tajribalaridan bir pog'ona yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Mazkur strategiya o'rganilgan

bilimlarni mustahkamlash va yangilarining samarali o'zlashtirilishiga zamin yaratadi [1;210].

- mashg'ulotlar kichik guruhlarda, hamkorlikda ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan imkon qadar boyitilishi zarur.

Madaniyatga oid umumiy bilimlarni auditoriyada mustaqil o'rgatishda grafik organayzerlar, o'ylang, juft bo'lib fikr almashing, barcha bilan fikr almashing (Think, Pair, Share), juftlikda, kichik guruhlarda ishlash kabi didaktik texnologiyalarni qo'llashning samarali ekanligi isbotlandi.

Grafik organayzerlar bu – matn, rasmlar yoki diagrammalar yordamida matndagi tushunchalar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish usuli. Ma'lumki grafik organayzerlarning juda ko'p turi mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos maqsadga ega. Grafik organayzerlarni xaritalar, turli tizimlarni birlashtiruvchi strukturalar, grafiklar, diagrammalar deb atash mumkin. Ingliz tili o'qitishda Venn diagrammasi, hikoyalar xaritasi, KWL (Know, Want to know, Learned) [2] – bilar edim, bilishni xohlayman, o'rgandim kabi grafik organayzerlardan foydalaniladi.

KWL (know, want to know, learned) diagrammasi 3 qismga bo'linadi: birinchisi mavzu bo'yicha nimani biladi, ikkinchisi mavzu bo'yicha nimani bilishni istaydi (yoki mavzu bo'yicha savollar tuzish), uchinchi qismda mavzu bo'yicha nimani o'rgandi (dars oxirida yoki topshiriqlar bajarilganidan so'ng) (3-rasmga qarang).

3-rasm.

KWL (know, want to know, learned) diagrammasi

What I think know	What I want to know	What I learned
Answer	Answer	Answer

Grafik organayzerlar talabalarga bilimlarini reflektiv baholashga yordam beradi. V.Urayt grafik organayzerlarga shunday ta'rif beradi: "Grafik organayzerlar matnning asosiy g'oyasi va mazmunini bir nechta so'z bilan vizual tarzda ifodalashni ta'minlaydi" [3]. Ushbu didaktik texnologiya talabalarning mustaqil o'rganish malakalarini, og'zaki muloqot malakalarini intensiv ravishda rivojlantiradi. Grafik organayzerlardan foydalanishning afzalliklari:

- talabalarga o'qish chog'ida matn tuzilishini farqlashni o'rgatadi;
- matndagi fikrlarning uzviy bog'langanlik yo'llarini ko'rishni o'rgatadi;
- matn bo'yicha xulosalarni tizimli ravishda yozishga yordam beradi;
- o'qish ko'nikma va malakalari qoniqarli bo'lgan talabalarga o'qib tushunish malakasining rivojlanishini ta'minlaydi va so'z boyligini oshiradi, lug'atlar bilan ishlashni o'rgatadi.

Think, Pair, Share (o'ylang, juft bo'lib fikr almashing, barcha bilan fikr almashing) didaktik texnologiyasi o'zaro hamkorlikda o'qitish texnologiyasi bo'lib,

ilk bor 1981-yilda AQSHda F.Laymen [4] tomonidan tavsiya etilgan. Bu didaktik texnologiyaning paydo bo'lganiga ko'p yillar bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunda chet til ta'limida dolzarblik kasb etmoqda.

Think, Pair, Share texnologiyasi (ilovaga qarang) talabalarning mustaqil fikrlash malakalarini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi savol-javob o'tkazish usuliga yangicha yondashuvni taklif qiladi. F.Laymenning fikriga ko'ra, o'qituvchining savoliga javob berish juda qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi talab qilinadi. Mazkur texnologiyaning Think qismida o'qituvchi savol berganidan so'ng o'ylash uchun 5 soniya to'liq vaqt beradi. Ma'lumki, hamisha qo'lini ko'tarib, darhol javob berishga tayyor talabalar bo'ladi. Bunday vaziyatda o'qituvchi hech kimni javob berishiga yo'l qo'ymasligi va berilgan savolga javobni qarshisida o'tirgan talaba bilan muhokama qilishi so'raladi. Bu lingvotexnologiyaning Pair qismiga to'g'ri keladi. Lingvotexnologiyaning Share qismida talabalar diqqati yana o'qituvchiga qaratiladi va muhokama davom ettiriladi. Bundan tashqari, Share qismini yanada qiziqarli qilish uchun talabalarni u yoki to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga bo'lish tavsiya etiladi. Har bir guruh o'zining javobini aytadi. Bir necha daqiqadan so'ng guruhlar bir-birlarining javobiga munosabat bildiradilar. O'qituvchi har bir guruhdan bir talabani guruhning javobini tayyorlashga mas'ul qilishi mumkin. Bu ma'lumot tayyorlash mas'uliyatini olgan talabada qo'shimcha motivatsiya uyg'otadi.

Talabalar Think, Pair, Share texnologiyasi orqali yetarli darajada mashq qildirilganidan so'ng, Share qismining davomi sifatida yozma ravishda javob yozish, rolli o'yinlar tayyorlash, rasm chizish, poster tayyorlash kabi mashqlarni bajartirish mumkin. Ushbu lingvotexnologiya ingliz tili o'rganishda uchraydigan salbiy psixologik omillar (affective filter)ni bartaraf etadi. Til materialini ko'p takrorlash imkoniyatining mavjudligi ingliz tilida erkin muloqot qilish malakasini rivojlantiradi va qisqa vaqt ichida barcha talabalarning gapirishni mashq qilishlarini ta'minlaydi.

Madaniyatga oid umumiy qarashlar va madaniyatga oid umumiy normalarni o'rgatish uchun biz tavsiya etgan lingvotexnologiya bu – juftlikda va kichik guruhlarda ishlash orqali talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan topshiriqlarni intervyu qilish, rasm haqida savol berish yoki voqea-hodisani so'rash, muhokama qilish yoki yozma ravishda "information gap" va "jigsaw" kabi topshiriqlarni bajaradi. Masalan, "information gap" lingvotexnologiyasi quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi. Bunda bir talaba boshqa talabaga zarur bo'lgan ma'lumotga ega bo'ladi. Bu topshiriq ikki talaba o'rtasida bajariladi. Ular bir-birlari uchun ma'lumot tayyorlaydi. Talabalar mashqni bir-birlariga ko'rsatmasdan, aniqlashtirish uchun savol-javob orqali bajaradilar (4-rasmga qarang).

Information gap texnologiyasi

INFORMATION GAP ACTIVITY

Student A

US State	Capital City	Famous Site
Oregon		Crater Lake
	Sacramento	
Arizona		Grand Canyon
	Tallahassee	

Student B

US State	Capital City	Famous Site
	Salem	
California		Mojave Desert
	Phoenix	
Florida		Everglades

Juftlikda yoki kichik guruhda ishlash uchun o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

topshiriq va uning maqsadini aniq tushuntirish;

talabalar bajaradigan topshiriqlarning birinchisini namuna sifatida o'qituvchining o'zi ko'rsatib berishi;

mavzuga oid yangi so'z va ma'lumotlarni topshiriqni bajarishdan oldin o'rgatish;

yozma topshiriqlarni bajarish ko'rsatmalarining mavjudligi, talabalarning instruksiylarni to'g'ri tushunganligini aniqlash, namuna ko'rsatish;

talabalarni juftliklarga yoki kichik guruhlariga ajratish va mashqni boshlash;

talabalarning topshiriqlarni bajarayotganliklarni har bir guruhning yoniga yaqinlashib nazorat qilish va zarur bo'lsa yordam berish.

Juftlikda ishlash texnologiyasining dialog, xatoni to'g'rilash, intervyu, transformatsiya, rolli o'yinlar, zarur ma'lumotni berish (information gap activity), tezkor xabar (quick lists), simulyatsion o'yinlar kabi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasining o'yin (doska yordamida o'yin tashkil qilish, mos so'z yoki iborlarni tanlash, pazllar, noto'g'ri yozilgan so'z yoki harflardan to'g'ri so'z va gaplarni topish, 20 ta savol), rolli o'yinlar, dramalar, loyihalar, muhokamalar, topishmoqli mashqlar (matndan qirqib olingan gaplardan hikoya tuzish, muammoli yoki murakkab mavzu bo'yicha har xil qisqa maqolalar olinadi va o'rganganlarini bir-birlariga aytib berish) kabi turlari taklif etiladi. Yuqorida aytib o'tilgan lingvotexnologiyalar mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga tatbiq qilganda, mazkur mashg'ulotlar til va madaniyatni o'rgatish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkinligi isbotlandi. Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida "Bekatlal almashinuvi", "Onlayn so'rov", "Radio muloqot", "Ijtimoiy so'rovnoma" kabi texnologiyalarni ishlab chiqdik va amaliyotda sinovdan o'tkazdik. Mazkur texnologiyalar talabalarning auditoriyada o'z

ustida va jamoada erkin, ijodiy va faol tarzda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish barobarida ularning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga erishildi.

Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri hisoblangan "jamoada nutq so'zlash tanlovi" (Public Speech Contest), insholar tanlovi (Essay Contest), o'qish marafoni (Reading marathon), o'ramizdagi muvaffaqiyatga erishgan insonlar va xorijlik mutaxassislar bilan motivatsion uchrashuv va master klasslar (Leaders' Talk), talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, tarixi, ma'daniyati, san'ati, urf-odatlar, ijtimoiy hayotiga oid badiiy asarlar, hikoya va esselarni o'qib jamoada muhokama qilish, filmlarni tomosha qilish va shuningdek turli madaniy bayramlarni nishonlash kabi imkoniyatlarni taqdim qiladigan kitobxonlar to'garagi (Readers' club) tashkil qilindi.

"Public Speaking Contest" talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini auditoriyadan tashqarida o'qituvchi-talaba hamkorligidagi mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishga qaratilgan faol harakatlarni qamrab oladi. Tanlov ishtirokchilari o'rganilayotgan chet tilini muloqot tilida oldindan tayyorlangan eng dolzarb mavzular asosida ta'sirli va mazmunli yoritilgan nutq namunalarini jamoada oldida namoyon etadi. Tanlov mezonlari asosida ishtirokchining nutq so'zlash jarayonida o'zini tutishi, nutq madaniyati va nutq mazmuni baholanadi.

"Essay Contest" tanlovi o'quv yilining har semestorida yoki yilda bir marotaba fakultet talaba-yoshlari orasida tashkil etilishi mumkin. Tanlov uchun insho mavzulari talabalarning ijtimoiy va kasbiy munosabatlarda adekvatligini ta'minlovchi ijtimoiy madaniy va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini, jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etish va insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlanganlik darajadalarini ifodalaydi. Misol uchun: How to keep one's identity in intercultural relations? (madaniyatlarda munosabatlarda kishi o'zligini qanday saqlab qoladi?); How should a person behave in social-personal conflict situations of intercultural relations? (madaniyatlarda munosabatlarda ijtimoiy-shaxsiy ziddiyatli vaziyatlarda kishi o'zini qanday tutishi kerak?); What to tell a foreigner about yourself and your country? (Xorijlik insonga o'zingizni, mamlakatingiz haqida nimalarni aytasiz?); What aspects of the culture of your country or region are you proud of? (Mamlakatingiz yoki mintaqangiz madaniyatining qaysi jihatlari bilan faxrlanasiz?) kabi mustaqil va mantiqiy fikrlashga, tahlil qilishga yonaltirilgan insho mavzularidan foydalanish tafsila etiladi.

"Reading marathon" auditoriyadan tashqaridagi o'qituvchi-talaba hamkorligida universitet miqyosida yoki o'rganilayotgan fan doirasida ingliz tilida mustaqil ta'lim sifatida o'tkazilishi mumkin. Mazkur o'qish marafoni o'qituvchi tomonidan fan doirasida o'quv dasturda ko'rsatilgan o'quv adabiyoti, badiiy asar yoki ilmiy maqolani tanlab, talabalar o'rtasida auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida marafon tashkil etiladi. Talabalar tomonidan mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar asosida taqriz (book review) yozadilar. Mazmunan keng yoritilgan, mantiqan to'g'ri asoslangan, ko'chirmachilikdan xoli mustaqil fikrlarini bayyon etilgan taqrizlar yuqori baholanadi.

"Leaders' Talk" jamiyatda muvaffaqiyatga erishgan xorij davlatlarida malaka oshirgan mutaxassislar ishtirokida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida motivatsion uchrashuv va


master klaslar tashkil qiladi. Jumladan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatda madaniyatlararo munosabatning asosi, muloqotning noverbal vositalari, o'zga madaniyatda qabul qilingan etiket, marosimlar, axloqiy va ma'naviy me'yorlar, o'zga madaniyatda malaka oshirish jarayonida boshidan o'tkazgan qiziqarli tajribalar va amaliyotlarni rasmiy va norasmiy davra jarayonida fikr almashish, yangi bilimlarni egallash, o'z ustida mustaqil ishlash kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, Readers' club to'garagi talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatlarini, ijtimoiy hayotiga oid badiiy asarlar, hikoya va esselarni o'qib jamoada muhokama qilish, filmlarni tamosha qilish va shuningdek turli madaniy bayramlarni nishollash kabi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Talabalar mazkur to'garak faoliyatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini sotsiolingvistik kompetensiyasini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishga erishiladi.

Ma'lumki, o'rganilayotgan chet tilini muloqot tili sifatida ishlatilishi haqidagi axborot qanchalik reallik kasb etsa, uni o'zlashtirish shunchalik oson kechadi. Sotsiolingvistik kontekstlarda ingliz tilini onlayn mustaqil rivojlantirishga qaratilgan MOOC, FutureLearn, Canvas, Coursera, Khan Academy kabi masofaviy ochiq va bepul kurslar talabalarga tili o'rganilayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish, san'at, ta'lim sohalarini haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'rganishni taqdim etadi. Mazkur kurslar tasnifiga ko'ra, sinxron (jonli aniq bir vaqtda tashkil qilinadigan kurslar), asinxron (aniq bir vaqtni talab etmaydigan, kursni ishtirikchi o'z xohish-istaklaridan kelib chiqib maqbul vaqtda o'qish) shakllari mavjud. Jumladan, tadqiqotimizda masofadan boshqariladigan Google classroom elektron o'quv platformasi yordamida www.futurelearn.com masofaviy ochiq bepul kurslari (masalan, "Explore how to improve your communication with people from other cultures")dan foydalandik. Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida tavsiya etilgan kurslar talabalarga tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, madaniy o'ziga xos jihatlari, madaniy normalar, madaniyatlararo muloqot etiketi, muloqot shakllari va qadriyatlar, o'zga mamlakat hayotiga qanday moslashish mumkinligi haqidagi bilim, ko'nikma va tajribalarni o'zlashtiradi va rivojlantiradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modelini quyidagi 5-rasmda ifodalaymiz.

5-rasm.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modeli



Mazkur model negizida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasi mustaqil ta'lim jarayonida rivojlanadi:

- talaba mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi qatorida o'z-o'zini tarbiyalab, talaba avtonomiyasi rivojlanadi;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron o'quv vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishga ishtiyoqi shakllanadi va ehtiyoji ortib boradi;
- tanlagan kasbi va mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqishi va ehtiyoji ortib boradi;
- turli ijtimoiy-madaniy munosabatlarda nutq madaniyati, nuiq odobi, ijtimoiy muloqoi etiketi qoidalaridan xabardorlik darajasi oshadi;
- kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan og'zaki va yozma nutqdan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- turli ijtimoiy-madaniy munosabatlarda o'zining aksiologik (tolerantlik, chet tili madaniyatiga, an'analari va qadriyatlariga, kishilariga nisbatan hurmat) qarashlari rivojlanadi;
- lingvistik va madaniy (chet tili jamiyatining ijtimoiy-madaniy voqeligini aks ettiruvchi bilimlaridan diskurs tarzda foydalanishga qaratilgan keyslar orqali madaniyatlararo muloqotga tayyorlik) ehtiyoji ortadi;
- turli ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda (imo-ishoralar, yuz ifodalari, noverbal vositalardan to'g'ri foydalanish) o'zining hatti-xarakatlarini boshqarishni o'rganadi;
- o'ziga nisbatan motivatsion reflektiv baholash (nutq xatti-harakatlarini nazorat qilish, tahlil qilish va baholash qobiliyati) layoqati rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Krashen S.D. (2019). Principles and Practice Second Language Acquisition. 1989. Internet edition. p. 210.
2. Adler C. Seven Strategies to Teach Students Text Comprehension. Retrieved October 2, 2021, from <http://www.readingrockets.org/article/seven-strategies-teach-students-text-comprehension>
3. Wright, W. E. (2010). Foundations for teaching English language learners: Research, theory, policy, and practice. Philadelphia
4. Lyman Frank T. (2022). 100 Teaching Ideas that Transfer and Transform Learning. New York. Imprint Routledge. DOI<https://doi.org/10.4324/9781003230281/>
5. Muhamadjonovna, S. D. (2020). The key concepts of forming sociolinguistic competence of future English language specialists. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(5), 118-121.

1-ilova

Mustaqil ta'lim jarayonida ingliz tilida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini eng yaqin rivojlanish zonasi pog'onasida taqdim etish, kreativ va reflektiv "Can I?" mazmunidagi baholash savollari

	Sociolinguistic competence Positive politeness	Yes	Almost	No
1	Can I clearly show my interest in a person's well-being?			
2.	Can I share experience and concerns in trouble talk?			
3.	Can I express admiration, affection, gratitude?			
5.	Can I offer gifts, promising future favors and hospitality?			
	Negative politeness			
6	Can I avoid face-threatening behaviour (dogmatism, direct orders, etc.)?			
7	Can I express regret, apologising for face-threatening behaviour (correction, contradiction, prohibitions, etc.) ?			
8	Can I use hedges, etc. (e.g. , I think, tag questions)?			
	Social markers			
9	Can I use appropriately "please, thank you' etc.			
10	Can I express contempt, dislike?			
11	Can I express strong complaint and reprimand?			
12	Can I vent my anger, impatience?			
13	Can I assert my superiority?			
14	Can I use and choice of greetings (On arrival (Hello), introductions (How do you do?), leave taking (See you later)?			
15	Frozen (e.g., My Lord), formal (e.g., Sir), informal (e.g., John), familiar (e.g., dear), peremptory (e.g., Smith!), ritual insult (e.g., you stupid idiot)			
16	Can I use and choice of expletives e.g., My God!)			
17	Can I use proverbs (e.g., an apple a day, keeps the doctor away)			
18	Can I use idioms (e.g., It is raining cats and dogs)			
19	Can I express beliefs, attitude and values and give reasons for them?			
20	Can I use systematic difference between varieties of language used in different context (Formal, Neutral, Informal, Familiar)			
21	Can I recognize social class regional provenance national origin ethnicity occupational groups (such markers: lexicon, grammar, (rhythm, loudness, etc.) paralinguistics body language)			